

INGLIZ TILIDA TO‘SIQSIZLIK KONSEPTINI EKSPLITSIT VA IMPLITSIT OBYEKTIVLASHTIRUVCHI LEKSIK VOSITALAR TAHLILI

M.A.Abdualiyev

ADChTI, Filologiya fanlari doktori, professor

E-manzil: muhammadjonabduvaliyev70@gmail.com

A.S.Hojiyev

ADChTI, Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) ta’lim yonalishi 101-guruh
talabasi

Tashqi va ichki olamdagi to‘siqsizlik munosabatlari dastlab leksik sath birligi leksema (jonli nutqda so‘z) orqali o‘z nominatsiyasiga ega bo‘lgan. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, tahlillar to‘siqsizlik konsepti uning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalovchi so‘z - reprezentant yoki unga teng maqomga ega sinonimlar orqali emas, balki yasama tarkibli leksemalar orqali ifodalanganligiga guvoh bo‘ldik. Masalan, ushbu konsept ingliz tilida concession, o‘zbek tilida to‘siqsizlik, monesizlik, rus tilida уступительность, уступка deb nom olgan.

Vebsterning uchinchi xalqaro lug‘atida¹ concession leksemasi quyidagi talqinlarga ega: 1. a. **yon berish xatti-harakati**, misoli yoki bosim, shikoyat, talab yoki iltimosga ko‘ra kechish, bahridan o‘tish (At my age I’ll make no concession to style); b. **Munozara, bahsda ilgari surilgan talabni qabul qilish**; ayniqsa: bahsli masalaga o‘zi xohlab ko‘nmoq; 2. **Ruxsat berilgan, kechib berilgan narsa**: nimanidir olish uchun berilgan tilxat, ruxsat (ijozat) berish: muruvvat, hadya, tortiq: a) davlat tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar yoki foydalanish uchun tortiq etilgan yer yoki boshqa mulk, xususan, xitoy bitimlarida port yoki boshqa savdo markazining xorijiy davlatga daxlsizligi va o‘zini o‘zi boshqarish huquqini beruvchi hujjat; b) odatda maxsus faoliyatlar orqali foyda topish huquqi (a concession to build a canal); d) bino va inshootlar yoki ularning ma’lum faoliyatlar yuritish uchun ajratilgan, ijaraga berilgan qismi (It was reported that some of the concessions at the fair were not honest); e) mahsulotlarning bugungi kundagi narxlarining qisqarishi (price concession).

¹ Webster’s Third New International Dictionary, Unabridged, 1993. – P. 470.

A.Madvaliyev tahriri ostida nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”²da to‘siq (ot); to‘siqli (sifat), to‘siqlik (ot) leksemalari qatorida to‘siqsiz (sifat) leksemasining to‘silimgan, ochiq va hech qanday qarshiliksiz, monesiz ma‘nolari o‘z aksini topgan bo‘lsa, S.I.Ojegov va N.Yu.Shvedovlar³ning “Rus tili izohli lug‘ati”da bu bo‘yicha quyidagilar aytilgan:

1. Kingadir nimanidir. Kimningdir foydasiga o‘zi xohlab rad etmoq. Уступить место (joy bermoq). Уступить дорогу (o‘zini chetga olmoq); shuningdek, ko‘chma ma‘noda) *Уступить свои позиции* (ko‘chma: отступить (chekinmoq ma‘nosida));

2. Kingadir nimadadir biron kishi, biron narsaga rozi bo‘lmoq, itoat qilmoq. Уступить в споре (bahsli holatlarda yon bermoq).

3. Kingadir nimadadir, kimdandir nimadandir biron bir munosabatda past kelmoq. *Он никому не уступит в храбрости*;

4. Kingadir nimanidir sotmoq yoki sotayotib arzonga bermoq (so‘zl.). *Дешево уступить вещь*; уступка, -и, ж.1. уступить ga qarang; 2. Biron kishining foydasiga biron narsadan voz kechmoq. Пойти на уступку. 3. Ko‘chma murosa, yon beruvchi qaror; biron narsada kuchsizlanish: Никаких уступок против своих убеждений. 4. Belgilangan narxlardan chegirish (so‘zl.). Продать с уступкой, уступчивый, -ая, -ое; -ив ж. egiluvchanlik, bukiluvchanlik kabi ma‘nolari qayd etilgan. Yuqoridagi hol o‘zbek tilida to‘siqsizlik leksemasi mavjud emas yoki u monosem leksema degan fikrni anglatmaydi. O‘zbek tili materiallari tahliliga tayangan holda to‘siqsizlik leksemasi quyidagi integral va differensial semalar yig‘indisidan iborat deb o‘ylaymiz: 1) **yon berish** (ko‘nish, rozi bo‘lish) xatti-harakati yoki holati; 2) **biron ish-harakatni bajarishga yoki ma‘lum holatga tushishga ruxsat (izn) berish**; 3) **biron narsadan voz kechish**, bahridan o‘tish (xohlab yoki talab va istaklarga ko‘ra); 4) **to‘silimganlik, ochiqlik** (hovli, yo‘l va boshqalar); 5) **monesizlik, qarshilik qilmaslik**, to‘sqin bo‘lmaslik; 6) **bahsli**

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т ҳарфи. 5 жилдди / А.Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: “O‘zbekiston nashriyoti” davlat unitar korxonasi. 2020. – Б. 93.

³ Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 4-е издание – М.: ООО “А ТЕМП”, 2020. – С. 808.

masalalarda past kelish, murosa; 7) **kimdir biron narsaga egalik qilishiga ruxsat berish**; 8) **o‘yin, saylov va boshqalarda** yutqazganligini tan olish, yengilish; 9) **chegirma bilan sotish**, belgilangan narxni o‘tib berish.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, to‘siqsizlik konseptininng ayni paytdagi lisoniy manzarasi, nominatsiyasi ichki va tashqi olamdagi predmet va hodisalar o‘rtasida kuzatiladigan munosabatlarni nomlash barobarida, bunday munosabatlar orasidagi differensial semalarni ham voqelantirib keladi. Ushbu nomema semalari ma’lum muloqot kontekstlari va nutqiy vaziyatlarda reallashadi. Konseptning yuqorida sanab o‘tilgan semalari o‘z ifodasini implitsit tarzda topganligi uni tushunishda nafaqat semantik, balki mantiqiy-kognitiv tahlillarga ham tayanib ish ko‘rishni taqozo etadi.

Tahlillar ingliz tilida tub leksemalarning to‘siqsizlik konsepti nominatsiyasidagi ulushi nisbatan past darajadiligini ko‘rsatdi. Bular asosan ot, sifat, fe’l, ravish so‘z turkumlariga mansub leksemalardir: yield (ot), yield (fe’l), concede (fe’l), ever (at any time), any (sifat), any (olmosh), any (ravish), allow (fe’l) va boshqalar.

Fe’l so‘z turkumiga mansub **to concede** polisemant leksema bo‘lib, u quyidagi semalarga ega: 1. Biron narsa haqiqiy ekanligi, mantiqqa to‘g‘ri kelishini tan olish, qabul qilish; He reluctantly conceded me the point; He was forced to concede that there might be difficulties; 2. Biron narsani xohlamay berib yubormoq; kimdir biron narsaga ega bo‘lishiga ruxsat (izn) bermok; *President was obliged to concede power to the army*; 3. O‘yin, saylov va boshqalarda yutqazgani (mag‘lubiyati)ni tan olmoq: After losing this decisive battle, the general was forced to concede⁴. Mazkur leksemaning birinchi ma’nosi fe’l orqali namoyon bo‘lib u chap va o‘ng tomondan ravish, ot leksemalar yoki that bog‘lovchili yoki usiz kelgan to‘ldiruvchi ergash gap bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. Ushbu munosabat quyidagi modellarda namoyon bo‘ladi: **V, Adv+V; V+Adv; V+That+S, V+N, V+N+N.**

⁴ Oxford Advanced Learners’ Dictionary of Current English. 7th edition. London, Oxford University Press, 2005. –P. 252.

Fe'l leksemaning ikkinchi semasi **V+N**, **V+N+N**, uchinchi semasi **V** va **VN** modellari orqali obyektivlashganligini kuzatish mumkin. **To concede** concession, conceding (ot), conceded (sifat) derivatlariga ega. Ushbu turkumga mansub yana bir fe'l leksema **to admit** bo'lib u beshta semani o'z ichiga oladi: 1. Biron narsa haqiqat ekanligiga (odatda xohlamasdan) rozi bo'lmoq, ko'nmoq: *She admits to being strict with her children; Don't be afraid to admit to your mistakes;* 2. Aybiga iqrор bo'lmoq, ya'ni qilgan ishi noto'g'ri yoki g'ayriqonuniy ekanligini aytmoq: *She admitted theft;* 3. Kingadir, nimagadir biron joyga kirishga yoki qo'shilishga ruxsat bermοq: *It will not be admitted to the theatre after the performance has started;* 4. Kingadir klub, maktab yoki biron tashkilotga a'zo bo'lishiga ruxsat bermοq: *The society admits all US citizens over 21;* 5. Kasalxona yoki insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatadigan muassasaga qabul qilmoq: *Two crash victims were admitted to the local hospital.* Mazkur polisemant fe'l leksema **to confess** fe'li bilan birinchi va ikkinchi ma'nolariga ko'ra sinonimlik munosabatida bo'lsa, uchinchi, to'rtinchi ma'nolariga ko'ra **to allow**, **to permit** bilan, beshinchi ma'nosiga ko'ra esa **to take** fe'li bilan sinonimlik munosabatiga kirishadi. Uning ma'nolari quyidagi tayanch modellar asosida lisoniy manzara kasb etadi: **V-ing**, **VN**, **V+that +S**, **VN+to inf**, **V+to N**, **V+to V-ing+N**.

To admit fe'li admission, admissibility, admissability, admittance, admission day, admitted asset, admitted company, admittatur ot, admitted, admissible (admissable), inadmissible, admitting sifat, admittedly ravish leksema derivatlariga ega bo'lib ular ushbu fe'l mazmun mundarijasidan o'rin olgan semalarga bevosita aloqador bo'lish barobarida xususiy semalarga ham ega ekanliklari aniqlandi. Masalan, admitted asset qo'shma yasama ot sug'urta kompaniyasining moliyaviy ahvolini aniqlashda hisobga olinishi kerak bo'lgan davlat tomonidan sug'urtachi egalik qilishi ruxsat etilgan har qanday mol-mulk bo'yicha tartib qoidalar ma'nosida, admitted company qonunlarga amal qiluvchi, ma'lum davlat yoki mamlakat ichida biznes transaksiya qilishga mas'ul bo'lgan kompaniya ma'nosida, admittatur ot leksemasi kollej yoki universitet tomonidan o'qishga qabul qilinganligi haqidagi rasmiy sertifikat ma'nosida, admission esa biron tashkilot yoki lavozimga qabul qilish, admissibility esa kirish uchun to'lanadigan pul, admission day biron bir

shtatni Qo'shma Shtatlar tarkibiga kirganligi nishonlanadigan kun kabi xususiy ma'nolarga ega.

Asimmetriya, ya'ni sinonimiya, antonimiya hodisalari derivatlar o'rtasida ham kuzatildi: **admission=admittance=admissibility** (bino yoki muassasaga kirish huquqi ma'nosida), **admissible (admissable)=admissive=admitting** (kirishga ruxsat beruvchi ma'nosida), **inadmissive=inadmissivable** sifat leksemalari bilan sinonimlik munosabatiga kirishuvi aniqlandi.

Endi to'siqsizlik semantikasi implitsit tarzda o'z ifodasini topgan **to confess** polisemant fe'l leksemasi va uning derivatlarini semik va struktur tahliliga yuzlanamiz. OALDda **to confess** fe'li rasman yoki politsiyaga yomon, g'ayriqonuniy ish qilganligiga iqrora bo'lish, qilgan ishidan uyalish yoki xijolat bo'lish, qilgan yomon ishlaridan pushaymon ekanligini Xudo yoki Popga iqrora bo'lish va kechirishlarini so'rash (xususan, katolik cherkovida); gunohlariga iqrora bo'lgan kishini tinglash⁵. Vebsterning uchinchi yangi xalqaro lug'atida ushbu fe'lining bosh ma'nosi etib shaxsiy, sirli, o'ziga ziyon yetkazuvchi biron narsani aytmoq yoki oshkor etmoq, e'tiqod qilish, biron sababga ko'ra sodir bo'lgan oqibatni ochib tashlash, oshkor etish kabi ma'nolari ham mavjud. Ushbu qatorga to confess fe'lining e'tiqod (amal, rioya) qilmoq ma'nosini ham qo'shib qo'yish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: *Muslims confess Koran rules; He confessed his debt, many of the church goes and confessed christians are grossly ignorant of the chief doctorines of their faith; After hours of questioning the suspect confessed.* Sanab o'tilgan ma'nolar **V, V+to+N, V+to+V-ing+N, V+that+S, V+N+Adj., VN** model-larda lisoniy tus oladi. Confession, confessor, confessant, confess, confessio, confessional, confessionalism, confession and avoidance, confessional, confessarius ot, confessional, confessional sifati, confessedly, confessingly ravish derivatlariga ega bo'lib ular bitta o'zak tarkibli so'z, bitta qo'shma so'z va qolganlari sodda yasama tarkibli leksemalardir. Ular quyidagi modellarga ega: **N, N+suf=N, N+suf=Adj., V+suf+suf+suf=N, N+conj.+N=N, N+suf+suf=Adv.**

⁵ Oxford Advanced Learners' Dictionary of Current English. 7th edition. London, Oxford University Press, 2005. – P. 256.

Ushbu leksik-semantik guruhda **confess** tan olmoq, bo‘yniga olmoq ma’nosida **acknowledge** fe’li bilan, **confessant** va **confessor**, **confession** va **acknowledgment**, **confessedly** va **confessingly**, **admittedly**, **avowedly** o‘zaro ma’nodosh leksemalar, **confessional** (ot) va **confessional** (sifat), **confessionary** (sifat) va **confessionary** (ot), **confess** (fe’l), **confess** (ot) esa omonim leksemalardir.

Yuqorida sanab o‘tilgan **confession**, **confessant**, **confessor**, **confessional**, **confessionalism**, **confession of faith** kabi derivatlarning semik tahlili ular diniy nutqiy uslubga xos ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, **confess** fe’l leksemasi gunohlarini kechirish uchun Xudo yoki Popga tan olib aytmq; gunoh yukini tan olish orqali yengillatmoq, tavbasini qabul qilmoq (Pop), e’tiqodini tan olmoq, ayblariga iqror bo‘lishni tinglamoq; **confessant** ot leksemasi tavba qiluvchi sig‘inuvchi kishi, **confessarius** gunohlariga tavba qilishni eshituvchi kishi, **confessional** istig‘for keltiriladigan (tavba qilib sig‘inadigan) joy (katoliklar cherkovi-vida), **confessor** tavbani qabul qiluvchi ruhoni, **confession** gunohlarini, ayblarini kechirishni so‘rab ruhoniya oshkor qilish kabi ma’nolarda diniy matnlar va din peshvolari nutqida ko‘p uchraydi. Bunday matnlarda to **confess** va uning derivatlari ijobiy konnotatsiyaga ega bo‘ladi. Shunisi qiziqarlilik, **confess** ot leksemasi noodatiy ravishda iqrorlik emas, balki Angliya qishloqlarida olti kishi uchun mo‘ljallangan raqs turini ifoda etadi.

Fe’l leksik-semantik guruhiga mansub yana bir polisemant fe’l **to allow** bo‘lib, u o‘zining 3 va 4 a,b. semalari, ya’ni to‘g‘ri deb hisoblamoq, to permit (yon berish bilan ruxsat berish, yo‘l qo‘ymoq); b. e’tiborsizlik tufayli qarovsiz holatga tushirmoq ma’nolariga ega. **To allow** bu hollarda to permit, to let, to admit, to concede, to acknowledge fe’llari bilan sinonimlik maqomida bo‘ladi: *He allowed an hour for lunch*⁶; *Pulled to the side to allow us to pass*⁷; *No smoking allowed*⁸; *Allow a garden to become overgrown with weeds*⁹. Fe’lning bosh ma’nosi maqtamoq, ma’qullamoq, qabul qilmoq bo‘lib bu ma’nolar eskirgan hisoblanadi: *Truly ye bear*

⁶ Webster’s Third New International Dictionary, Unabridged, Konemann, 1993. – P. 58.

⁷ O’sha manba, 1993. – P. 58.

⁸ O’sha manba, 1993. – P. 58.

⁹ O’sha manba, 1993. – P. 58.

*witness that ye allow the deeds of your fathers*¹⁰. Ushbu fe'l dialektal ma'noga ham ega bo'lib u fikrda bo'lmoq, o'ylamoq, reja qilmoq ma'nolarini anglatadi. Bunday ma'nolar tarkibida to'siqsizlik semasi kuzatilmaydi: *We allowed it was too late to start; I allowed to go fishing tomorrow*¹¹. Shunisi qiziqarliki, o'timsiz fe'l sifatida **to allow** imkon bermoq, imkoniyat yoki asos bilan ta'minlamoq ma'nolarida yon berish (to'siqsizlik) ma'nosini kasb etadi: *Evidence that allows of only one conclusion*. **To allow, to permit** va **to let** fe'llari konnotatsiyasi va qo'llanish ko'lamlariga ko'ra turlicha maqom kasb etadilar. Masalan, **to allow to let** ga nisbatan rasmiyroq maqomga ega bo'lib u yozuvda ko'p qo'llanadi, to let esa so'zlashuv nutqiga xos bo'lib unga sinonim fe'llar orasida dominantlik xususiyatiga ega. To permit rasmiy va texnikaga oid yozma matnlarda ko'p qo'llanilishi kuzatildi: *Let James sit there; Some parents allow their children to do whatever they like; Photography is not permitted in the gallery*¹². Ushbu fe'l leksema qator ot, sifat, ravish so'z turkumlariga mansub derivatlarga ega: *allowability, allowableness* (ot. ruxsat, yon bersa bo'ladigan sifat yoki holat), *allowable* (ot. neft qudug'idan xohlagan kunda neft qudug'i operatoriga neftni olish qonun bilan ruxsat etilgan miqdor), *allowance* (ot. Ma'qullash, quvvatlash, ruxsat etilgan narsa, ulush, grant musobaqadoshlarga tenglashib olish imkoni berilgan yon berish, imtiyoz; ruxsat berish (permission) akti); *allowable* (sifat. maqtovg'a loyiq, ruxsat bersa bo'ladigan (qonunga zid emas); *allowably* (ravish. ruxsat etilgan tarzda), *allowedly* (ravish. qabul qilingan holda), *allowance* (fe'l. oziq-ovqat, ichimlik ustidan qat'iy me'yorni belgilab qo'yimoq: *The captain allowanced his crew*), chegaralangan miqdorda ta'minlamoq; *Allowed* (sifat. fizikada tanlov tamoyillariga muvofiq (permitted)), *allowance account* (ot. zaxira, hisob).

Tahlillar **allowance** (ot), **allowance** (fe'l), **allowable** (ot), **allowable** (sifat), **allowableness** omonim leksemalar ekanligini ko'rsatdi. Ikki o'zakdan tashkil topgan *allowed time* ot leksemasi (**Adj+N=N**) ikki ma'noli bo'lib uning birinchi

¹⁰ O'sha manba, 1993. – P. 58.

¹¹ O'sha manba, 1993. – P. 58.

¹² Oxford Advanced Learners' Dictionary of Current English. 7th edition. London, Oxford University Press, 2005. – P. 31.

ma'nosi sanoatda ishlaydigan motorlarning standart vaqti, ikkinchi ma'nosi ish vaqtida ishchiga shaxsiy ehtiyojlari uchun ruxsat etilgan vaqtdir. Aynan shu ma'noda **allowed time time allowance** bilan sinonimdir.

To allow fe'lining unga qo'shni so'zlar bilan qovushib kelish modellari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz: **V+N+to inf; V+V-ing; V+N+N; V+N+Adv.; V+N+prep.+ N; V+that+S; V+prep.+N.**

To'siqsizlikni implitsit tarzda ifoda etuvchi yana bir fe'l leksema **to let** bo'lib, Vebster lug'atida uning 8 ta, A.S.Xornbi¹³ lug'atida esa 11 ta ma'nosi farqlangan. Semik tahlillar asosida ushbu fe'l ma'nolarida to'siqsizlik yashirin tarzda mavjudligi aniqlandi. Bular: biron kishiga biron narsa qilishga ruxsat bermoq, biron narsa sodir bo'lishiga, uni to'xtatishga harakat qilmay yo'l qo'yib bermoq: *Let your body relax¹⁴*; kimgadir biron ish qilishga izn bermoq: *They won't let him leave the country*; Biron kishi / narsani biron joyga borishiga ruxsat bermoq: *I'll give you a key so that you can let yourself in¹⁵*.

Semik tahlillar to'siqsizlik semasi barobarida yordam taklif qilish (*Here, let me do it*), iltimos qilish (*Let me have your report by Friday*), da'vat qilish (biror kishini biror narsa qilishidan qo'rqmaslik yoki tashvishga tushmaslik) (*If he thinks he can cheat me, just let him try!*)¹⁶, biron narsa sodir bo'lishiga kuchli istak bildirish (*Let her come home safely!*), texnika sohasidagi hisob-kitoblarda biror narsani to'g'ri deb topish (*Let line AB be equal to line CD*), uy, xonadonni foydalanish uchun ijaraga bermoq (*I let the spare room*)¹⁷.

Semik tahlil to let to allow fe'li bilan 1, 2, 3, 5, 6, 9, 11- ma'nolarida o'zaro sinonim, 4, 7, 8- va 10- ma'nolarida sinonim bo'la olmasligini ko'rsatdi. Masalan qiyoslang: I let him (ruxsat berish) ↔ I allowed him (ruxsat berish)

Let her come home safely! (tilak) ↔ *Allow her come home safely* (ruxsat so'rash)

¹³ Oxford Advanced Learners' Dictionary of Current English. 7th edition. London, Oxford University Press, 2005. – P. 256.

¹⁴ O'sha manba, 2005. – P. 737.

¹⁵ O'sha manba, 2005. - P. 737.

¹⁶ Oxford Advanced Learners' Dictionary of Current English. 7th edition. London, Oxford University Press, 2005. – P. 737.

¹⁷ O'sha manba, 2005. – P. 737.

Uyiga eson-omon kelib olsin! ↔ *Uyiga eson-omon kelib olishiga ijozat bering.*

If he wants to cheat me, just let him try! (da'vat) ↔ *If he wants to cheat me, just allow him* (ruxsat so'rash).

Mabodo u meni aldamoqchi	↔	Mabodo u meni aldamoqchi
bo'layotgan bo'lsa, bir urinib		bo'layotgan bo'lsa, urinib
ko'rsin-chi!		ko'rishga ruxsat bering.

To let fe'lining ma'nolari quyidagi modellarda obyektivlashadi: **V+N+inf.**, **V+N+prep.+to +N**, **V+N**. Mazkur fe'l **let-down** (o't. ko'ngil sovishi), **let out** (ot. biron narsa qilishdan to'xtatuvchi, yo'l qo'ymaydigan voqea yoki habar), **let down** (fe'l. sekin asta pastlashga imkon bermoq), **let down** (ot. depressiya manbai yoki kayfiyat), **letdown** (sifat. tushkunlikka tushgan) kabi omonim derivatlarga ega.

Ever ravish leksemasi uch ma'noli bo'lib, u har vaqt, doim, abadiy, muntazam ravishda, har qachon ma'nolariga ega va u *always, constantly, continuously, at any time, on any occasion, at any period or point of time, in any way, by any chance* kabilar bilan ma'nodoshdir: *He is ever making the same mistake*. Ushbu ravish so'z turli o'zak so'zlar bilan qo'shib turli ma'nolarni ifoda etadi. Masalan, **evergreen** (hamisha yashil, doim ko'm-ko'k, doim yashil o'simlik), **evergrowing** (sifat) doimo (hamma vaqt, har doim, hamisha) o'sadigan, **everlasting** (ot) abadiylik, boqiylik, mangulik, **evermore** (ravish) umrbod, mangu, **ever present** (sifat) har yerda hozir-nozir, **everbloomer** (ot) doim gullab turadigan o'simlik, **everduring** (sifat. eski) abadiy, boqiy, **everblooming cherry** (ot) avliyolar gilosi, **evergreen grass** (ot) baland bo'yli suli o'ti, **everlastingly** (ravish) abadiy, umrbod (*His name will be everlastingly remembered*), **everlastingness** (ot) mangulik, boqiylik, **everly** (ravish) muntazam ravishda.

Yasama tarkibli so'z nominatlar haqida gap ketganda **immeasurable**, **immeasured**, **undying**, **immortal**, **unending**, **boundless**, **illimitable**, **illimited**, **invincible**, **bottomless**, **indivisible**, **unlimited**, **unbreakable**, **invisible**, **imperishable**, **unconquerable**, **undyingness**, **immortalizer**, **unendingness**, **measurelessness**, **illimitedness**, **invisibility**, **invincibleness**, **indivisibleness**,

unbreakableness, inaccessibility, unlimitedness, imperishableness, immortally, eternally, everlastingly, invincibly, bottomlessly, undyingly, endlessly, unendingly kabi yasama tarkibli va noiseproof, soundproof, waterproof (sifat), waterproof (ot), waterproof (fe'l), bulletproof, evergreen (sifat), evergreen (ot), everbloomer, evermor kabi qo'shma va qo'shma yasama leksemalar to'siqsizlik semantikasi ifodasida muhim o'rin tutishligini alohida ta'kidlagan holda ularning tahliliga yuzlanamiz.

Yasama tarkibli immortalise (amer. immortalize) fe'l leksemasi kimnidir, nimanidir kelajakda unutib yuborilmasligi uchun adabiyotlarda gapirib o'tish, ular haqida filmlar yaratish, portretlar chizish ma'nosida qo'llanadi: *The poet fell in love with her and immortalized her in his verse*. Immortal (sifat. o'lmas, abadiy, mangu) mortal so'zining ziddi bo'lib, u abadiy yashaydigan va doim yodda tutiladigan, mashhur ma'nolariga ega: *The soul is immortal; The immortal Goethe*. Ushbu sifat leksema immortal ot leksemasi bilan omonimlik munosabatida bo'ladi. Immortal ot leksemasi mangulikka daxldor mashhur kishi va mangu yashaydigan Xudo yoki boshqa narsa ma'nolariga ega: *She is one of the Holliwood immortals*. Ushbu derivatlar so'z yasovchi prefiks **im-** va fe'l yasovchi suffiks **-ize**, ot va sifat yasovchi **im-** va **-al**, ot yasovchi **im-** va **-ity** yordamida yasalgan bo'lib, bunday tarkibli so'z leksemalar ma'nosiga zid ma'no anglatgan prefiks to'siqsizlikni ifoda etgan. Buni quyidagi modellarda tasvirlash mumkin: **Pref.+N+suf., aniqrog'i im-+N+ize, im+adj.+al, im+adj.+suf.**

Immortal sifat leksemasi undying, **eternal, perpertual, immortality** esa **undyingness** sinonimlariga egalar.

Unending, unended va **endless** sifat leksemalar o'zaro ma'nodosh bo'lib, ular **un-** prefiksini fe'lning sifatdosh I va II shakllari boshiga, end (ot) ga **-less** sifat yasovchi suffiksni qo'shish orqali yasalib ularning **cheki yo'q, tuganmas, cheksiz, bepoyon, beadam** ma'nolarida to'siqsizlik semasi implitsit tarzda o'z ifodasini topganini kuzatish mumkin. Shunisi qiziqki, unending boqiy, o'lmas, mangu ma'nolarida kelganda undying va eternal sifat leksemalari bilan sinonimlik munosabatida bo'ladi. Qiyoslang: **unending love = undying love = eternal love.**

Ingliz tilidagi yana bir ravish leksema **unendingly everlastingly** ravishi bilan **cheksiz tarzda, tuganmas** ravishda manolariga ko‘ra sinonimdir. Bu ravishlar fe‘l bilan birikadigan determinantlardir. Boqiylik, mangulik, cheksizlik ma‘nolari unendingness ot leksemasida o‘z ifodasini topgan. Ular quyidagi tayanch modellar asosida yuzaga keladilar: **pref. neg+V-ing, pref.neg+V-ed, pref.neg+Ving+suf., pref.neg+Ving+suf.** So‘nggi ikki modellar omomodellar bo‘lib, ular aniq nutqiy va lisoniy vaziyatlarda qaysi turkumga mansubligi oydinlashadi.

Boundless sifat leksemasi **cheksiz, chegarasiz, bepoyon, behad, beqiyos, ulkan, juda katta** ma‘nolariga ega bo‘lib, uning sinonimlari **immeasurable, measureless, immensurable, illimitable, unlimited, illimitate** (sifat. eski) dir. Bu ma‘nolar makon, samo (falak) yoki inson ichki kechinmalarining yoki hajm miqdor, son, daraja, kuch-quvvat, ahamiyatning o‘ta katta, yuqori ekanligi, chek-chegarasi yo‘qligini anglatib keladi. Qiyoslang: **boundless** ocean, boundless joy, boundless optimism. Boundless boundlessly ravish va boundlessness ot derivatlariga ega. Ushbu yasama so‘z va uning derivatlari **N+suf=adj., N+suf+suf=adv., N+suf+suf=N** modellariga ega. Shuningdek, **boundlessly** va **illimitedly** (ravish. eski), **immitably, boundlessness, illimitedness, (ot. eski), unlimitedness, illimitedness** o‘zaro ma‘nodoshdir. **Imperishable** sifat leksemasining ma‘nosi **perishable** so‘zi ma‘nosiga zid bo‘lib, u im-/in+ **perishable** (ma‘nosi yo‘q bo‘lib ketadigan, o‘tkinchi, bebaqo) qovushuvi asosida yasalgan. Bunday qovushuv to‘siqsizlik semasini yuzaga keltirgan va quyidagi ma‘nolarni kasb etgan: **buzilmas, buzilmaydigan, mustahkam, abadiy, azaliy va mangu.**

U **imperishable (ot), imperishableness, imperishability** (mustahkam, mahkamlik, abadiylik, azaliylik, mangulik, doimiylik), **imperishable** (ravish. mustahkam tarzda, azaliy holda) kabi derivatlariga ega.

Sifat leksema ma‘nosida yasama tarkibli imperishable so‘zi rasmiy va badiiy nutq uslublariga xoslangan bo‘lib, u **undestructible, endurable, enduring** (chidamli, pishiq, puxta, bardoshli, sabr-toqatli; uzoq davom etadigan ma‘nolariga ega) so‘zlariga ma‘nodoshligi aniqlandi: Masalan, imperishable monument, destructible monument.

U bardoshli, sabr-toqatli ma'nolari umumiylikiga ko'ra bearable, tolerable bilan sinonimlik munosabatida bo'ladi. Uning bardoshlilik, chidamlilik ma'nosi imperishability va endurableness orqali obyektivlashadi.

Shu bilan bog'liq ravishda **to endure** polisemant fe'li bir xil holda davom etmoq, ruxsat bermoq (allow, permit), ma'nolariga ega: *Laws that have endured for centuries a poem that will not endure a facile interpretation*¹⁸. Yana bir derivat **endure** (ot) bo'lib, u chidamli, sabrli, bardoshli kishi ma'nosini anglatadi, enduringly ravishi muntazam ravishda, doimiy tarzda ma'nolari asosida lastingly, permanently ravishlari bilan ma'nodoshdir.

Imperishable, endurable va boshqa derivatlar quyidagicha morfologik, tarkibga ega bo'lishini kuzatdik, ya'ni **Pref. im+V+suf, pref. im +Adj+suf., pref. im+Adj.+suf., V+-ing, Adj+suf., V+suf.**

Ingliz tilidagi invincible sifat so'zi **unconquerable, undefeated, unbeatable** sinonimlariga ega bo'lib, ular *yengilmas, mag'lub bo'lmaydigan, zabt etib bo'lmas* (yengib bo'lmas) ma'nolarida umumiylik kasb etadilar. Shunisi qiziqki, to'siqsizlik semasi o'zak so'zlar ifoda etgan ma'nolar ziddini hosil qiluvchi inkor in- va un-prefikslarini qo'shish orqali hosil bo'lmoqda.

To'siqsizlik semantikasiga ega yana bir sifat-leksema invincible g'alaba qozonib bo'lmaydigan, bo'ysunmaydigan, yengib bo'lmaydigan, kuchli, zo'r; nazorat qilishga ojiz inson kabi ma'nolarga ega. Ushbu yasama tarkibli so'z **unbeatable, unconquerable** lar bilan ma'nodoshdir.

U ot maqomidagi ikkita (**invicibility, invincibleness**) va bitta ravish (invincibly) derivatlariga ega. Sifat leksema **invincible** ot leksema **invincible** (yengilmas odam) bilan omonimlik munosabatiga ega.

Invincible (sifat)ning ziddi vincible (yengsa bo'ladigan, zabt etsa bo'ladigan) dir. Qiyoslang **invincible army** – vincible army yengilmas qo'shin, yengsa bo'ladigan qo'shin. Yuqoridagi derivatlarning tayanch modellari **Pref. in+Adj.=Adj.; Pref. in+Adj.+suf=N; Pref. in+Adj.+suf=Adv.**lardir. Sinonim sifatlar unbeatable va unconquerable quyidagi modellarga ega: **Pref.**

¹⁸ Webster's Third New International Dictionary, Unabridged, Konemann, 1993. – P. 750.

un+V+suf=Adj; Pref. un+V+suf=Adj; Invincible (sifat) va invincible (ot) omoleksemalar quyidagicha umumiy omomodellarga egalar: Pref. **in+Adj=Adj; Pref. in+N=N.**

Tahlillar to'siqsizlik semasiga ega qo'shma so'z (ot, sifat, fe'l) leksemalar nisbatan kam ekanligini ko'rsatdi. Shuni ta'kidlash lozimki, **noiseproof, sound proof, waterproof, bulletproof** sifatlar, **waterproof** ot va **water proof, bulletproof** fe'l so'zlarda to'siqsizlik hech qanday indikatorsiz, implitsit tarzda ifodalanib, uning yorqinlik va ravshanlik darajasi pastdir. Ushbu qo'shma so'z leksemalardan **noiseproof** va **soundproof** sinonim, **waterproof** fe'l, ot, sifat leksemalari turli so'z turkumlariga mansub omonim leksemalardir. Qizig'i shundaki, ushbu sinonim va omonim leksemalar **N+N=Adj.; N+N=V; N+N=N** modellariga ega. Masalan: **waterproof fabric, a soundproof studio, a bulletproof car** va boshqalar. Bunday qo'shma so'zli semalar so'z yasovchi **-er, -ing, -ness** kabi suffikslar bilan birgalikda qo'shma yasama so'zlarni yuzaga keltiradilar: **waterproofing, soundproofer, soundproofing, waterproofer, waterproofness** va boshqalar. Bular orasida kam bo'lsa-da, uch o'zak so'zdan yuzaga kelgan qo'shma so'zlar ham kuzatildi: **waterproof watch** (ot), **shock absorbent watch** (ot). **Shock absorber** va **shock damper** sinonim otlar bo'lib, ular ham to'siqsizlikni implitsit tarzda ifodalovchi leksik birliklar sirasiga kiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduvaliyev M.A. To'siqsizlik konsepti nominativ maydonini tashkillovchi birliklarning kognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz, o'zbek va boshqa tillar misolida). F.f.d. dissertatsiyasi. 2023- 250 b.
2. Abduvaliyev M.A. Сложноподчинённые предложения с придаточными уступительными в разносистемных языках. АКД.-Ташкент, 1989-16с.
3. Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта. – Волгоград, 2003.-271 с.
4. Антология концептов / Под ред. В.И.Карасика, И.А.Стернин. – М; 2007.-512 с.

5. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка / А. П. Бабушкин. – Воронеж: Изд-во Воронежского государственного ун-та, 1996. – 104 с.
6. Бабушкин А.П., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика и семасиология. – Воронеж: РИТМ, 2018. – 229 с.
7. Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика / Н.Н.Болдыров. – Тамбов: Изд-во Тамб., ун-та, 2000.-290 с.
8. Во‘tayev Sh. Inglizcha – o‘zbekcha, o‘zbekcha- inglizcha lug‘ati. – Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2013. – 878 b.
9. Rustamov D.A. Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik talqinlari hamda zamonaviy konsepsiyalari. DDA.- Andijon, 2021.- 32 b.
10. Halimova M.M. Ingliz va o‘zbek tillarida olamning lisoniy manzarasi voqelashuvida “head/bosh” somatizmi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2023. -28 b.
11. Oxford Advanced Learners’ Dictionary of Current English. 7th edition. London, Oxford University Press, 2005. – 1944 p.
12. Webster's Third New International Dictionary, Unabridged, 1993. – 2654 p.
13. Wilkinson P. R. The Concise Thesaurus of Traditional English Metaphors: - London.: Taylor & Francis Ltd United Kingdom, 2008. – 338 p.